

"TIBBIY KIMYO" KAFEDRASI



Мамутов Жанабай
Искендерович
(1950-2001 гг.)



Айтмамбетов Алламберген
(1953-2010 гг.)

Biologiya fanlari kafedrası birinchi marta 1990-yilda Qoraqalpoq davlat universitetining tibbiyot fakultetida tashkil etilgan. Bu yillarda kafedrada quyidagi professor-o'qituvchilar dars berishdi: b.f.n. Karabekov M., t.f.n. Ismaylov M., k.x.f.n. K. Ibragimov

1991-yil 1-oktyabrda ToshPTI Qoraqalpog'iston filiali ochildi va "Tibbiy biologiya va organik kimyo" kafedrası tashkil etildi. Kafedra mudiri t.f.d., professor Mamutov J.I. Kafedrada quyidagi professor-o'qituvchilar dars berishgan: t.f.n. Qunnazarov R., q.x.f.n. Tlegenov R., assistentlar: Kalliyeva T., Meldebekova S., Xo'jambergenov K., Nurpo'latova S., Matkarimova A., Xo'jabekova L., Yeshimbetova L.

2001-2010-yillarda kafedra mudiri k.f.d. Aitmambetov A. 2006-2007 o'quv yilida filial Ilmiy Kengashi qarori bilan kafedra qayta tashkil etilib, "Umumiy kimyo, biokimyo va laboratoriya ishlari" kafedrası deb nomlandi.

2009-2010 o'quv yilida filial Ilmiy Kengashi qarori bilan kafedra qayta tashkil etilib, "Umumiy kimyo, biokimyo va normal fiziologiya" kafedrası deb nomlandi. Kafedra mudiri k.f.d. Aitmambetov A.

2010-2017-yillarda kafedra mudiri, k.f.n. S.U. Meldebekova.

2010 - 2011 o'quv yilida kafedra " Yilning eng yaxshi kafedrası " nominatsiyasiga sazovor bo'ldi va kompyuter bilan rag'batlantirildi.

2017-2020-yillarda kafedra mudiri Xo'jambergenov K.M.

2020-2021-yillarda kafedra mudiri, k.f.n. Meldebekova S.U.

2021-2024-yillarda kafedra mudiri Xo'jambergenov K.M.

2024-yildan hozirgi kunga qadar kafedra mudiri k.f.n., dotsent Meldebekova S.U.

Hozirgi kunda kafedrada k.f.n., dotsent Meldebekova S.U., katta o'qituvchi Bekmanova G., assistentlar Sultanova Sh., Uteniyazov B., Kurbanova G., Saginova J., stajyor-assistent G.Kadirova, O.Kadirbayev, k.f.n., dotsent B.Bektursinov, t.f.d., dotsent Muxamedova N. dars bermoqda.

Kafedrada "Tibbiy kimyo," "Biologik kimyo," "Anorganik kimyo," "Organik kimyo," "Analitik kimyo," "Fizik-kolloid kimyo," "Tibbiy biokimyo" fanlari bo'yicha 1-2-3-4 kurs talabalari tahsil oladi.

Kafedra xodimlari tomonidan har yili ma'ruzalar banki, o'quv va nazorat testlari, vaziyatli masalalar, uch tilda elektron darsliklar va o'quv-uslubiy majmualar yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilmoqda, zamonaviy ko'rgazmali qurollar to'plamlari yaratilgan, videofilmlar mavjud.

Fanlar bo'yicha talabalar va o'qituvchilar uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Kompyuter bazasi yaratildi. Kafedra xodimlari muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida o'z bilim va ko'nikmalarini oshiradilar, shuningdek, turli konferensiyalarda ishtirok etadilar.

Kafedra xodimlari tomonidan qoraqalpoq tilida "Biokimyo tiykarlari" darsligi chop etildi.

J.I.Mamutov. 2003y. O'quv qo'llanma -"Geterociklik birikpeler ximiyasi" mual.

A.Aytmambetov va boshqalar, "Biologik kimyo bo'yicha laboratoriyalik amaliy shinig'io'larning metodik qo'llanmasi" uslubiy qo'llanmasi. A.Aytmambetov va boshq. 2003, "Kimyodan 1000 test" I, II bo'lim 2022 y., "V grupp Mn+2, Fe+3, Bi+3 kationlarining analitik reaksiyalari" mual. Sh.Sultonova. va boshq. 2021 y., "Organikalik ximiyadan laboratoriyalik jumislar" mual. B.Uteniyazov va boshq. 2021 y., "Sirt hodisalari va adsorbsiya" mual. Bekmanova va boshq. 2021 y., "I A grupp elementlari" mual. G.Bekmanova va boshq. 2021 y., "Kolloid-dispers sistemalar kolloid bo'leksheler" mual. G.Bekmanova va boshqalar, 2022-y.,

2025 y. "Uglevodlar" o'quv qo'llanmasi mual. S.Meldebekova, K.Xojambergenov,

G. Bekmanova, Sh.Sultonova. 150 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan.